

30-May, 2026-yil

**SHOISLOM SHOMUHAMMEDOVNING UMAR XAYYOM RUBOIYLARI
TARJIMASIDA BADIY EKVIVALENTLIK MUAMMOSI**

Fotima Mirzakarimova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (TDSHU) 3-kurs talabasi

e-mail: mirzakarimovafotima95@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek sharqshunosligining yetakchi vakili, filologiya fanlari doktori Shoislom Shomammedov (1921–2007)ning Umar Xayyom ruboiylarini o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ekvivalentlik muammosini qanday hal etgani tahlil etiladi. Tahlil «Ruboiylar» to'plami (Toshkent: O'zbekiston KP Markaziy Komiteti nashriyoti, 1981)ning asl matniga asoslanadi. Maqolada formal, dinamik va kommunikativ ekvivalentlik nazariyalari doirasida tarjimonning she'riy shakl, falsafiy mazmun va madaniy ramzlarni o'zbek tiliga ko'chirishdagi aniq usullari ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *Shoislom Shomammedov, Umar Xayyom, ruboiy, badiiy ekvivalentlik, tarjima nazariyasi, she'riy tarjima, falsafiy kolorit, formal ekvivalentlik, dinamik ekvivalentlik.*

Аннотация: *В данной статье анализируется, как ведущий представитель узбекского востоковедения, доктор филологических наук Шаислам Шамухамедов (1921–2007) решил проблему эквивалентности в процессе перевода рубаи Омара Хайяма на узбекский язык. Анализ основан на тексте сборника «Рубаи» (Ташкент: издательство ЦК КП Узбекистана, 1981). В рамках теорий формальной, динамической и коммуникативной эквивалентности в статье демонстрируются конкретные методы, использованные переводчиком для переноса поэтической формы, философского содержания и культурных символов в узбекскую языковую среду.*

Ключевые слова: *Шаислам Шамухамедов, Омар Хайям, рубаи, художественная эквивалентность, теория перевода, поэтический перевод, философский колорит, формальная эквивалентность, динамическая эквивалентность.*

Abstract: *This article analyzes how the leading representative of Uzbek Oriental studies, Doctor of Philological Sciences Shoislom Shomammedov (1921–2007), resolved the problem of equivalence during the translation of Omar Khayyam's rubaiyat into the Uzbek language. The analysis is based on the text of the "Rubaiyat" collection (Tashkent: Publishing House of the Central Committee of the Communist Party of Uzbekistan, 1981). Within the framework of formal, dynamic, and communicative equivalence theories, the article demonstrates the specific methods used by the translator to transfer poetic form, philosophical content, and cultural symbols into Uzbek.*

Keywords: *Shoislom Shomammedov, Omar Khayyam, rubaiyat, literary equivalence, translation theory, poetic translation, philosophical flavor, formal equivalence, dynamic equivalence.*

1. KIRISH

She’riy tarjima — tarjima nazariyasining eng murakkab yo‘nalishi. Asl matnning nafaqat mazmunini, balki vazni, qofiya tuzilishi, ritmik ohangdorligini va madaniy-falsafiy qatlamlarini bir vaqtning o‘zida boshqa tilda ifodalash tarjimondan ikki xil salohiyat talab etadi: bir tomondan — chuqur tilshunoslik bilimlari, ikkinchi tomondan — she’riy ijod iqtidori. Yudjin Nida bu ikki talabni «formal ekvivalentlik» va «dinamik ekvivalentlik» tushunchalari orqali nazariy jihatdan ifodalagan. Formal ekvivalentlikda tarjimon asliyat shaklini imkon qadar saqlab qolishga intilsa, dinamik ekvivalentlikda maqsad til o‘quvchisiga tabiiy va ta’sirchan tuyulishi ustuvor sanaladi.

Umar Xayyom (1048–1123) ruboiylari — bu ikki tamoyilning uyg‘unlashtirilishini talab etuvchi she’riy matnlardir. Ular fors she’riyatining o‘ziga xos aruz vazni va qat’iy AABA qofiya sxemasiga ega bo‘lib, to‘rt misrada hayot falsafasining eng teran savollarini jamlaydi. Bunday matnni tarjima qilish — forsiy asliyatga sadoqat va o‘zbek she’riy an’anasiga moslashish o‘rtasidagi nozik muvozanatni talab etadi.

Shoislom Shomammedov bu vazifani umrining asosiy ilmiy-ijodiy maqsadi deb bildi. U 1981-yilda chop etilgan «Ruboiylar» to‘plamiga yozgan so‘zboshisida shunday deydi: Xayyom ruboiylaridagi «may — badiiy obraz bo‘lib, uni jo‘ngina va aynan tushunish to‘g‘ri bo‘lmaydi». Bu mulohaza tarjimonning asliyatni faqat leksik darajada emas, balki badiiy-falsafiy tizim sifatida anglashini ko‘rsatadi.

Ushbu maqolada «Ruboiylar» to‘plamidagi aniq misralar tahlili orqali Shomammedov qo‘llagan ekvivalentlik usullari ko‘rsatiladi va tarjimasining ilmiy-adabiy qimmatini baholanadi.

2. Nazariy asos: ekvivalentlik tushunchasi va she’riy tarjima

Tarjima nazariyasida ekvivalentlik — asosiy kategoriya sifatida turli maktablar tomonidan har xil talqin etilgan. Ushbu maqolada uch asosiy yondashuv qo‘llaniladi.

Birinchisi — Yudjin Nida va Charlz Teyberning «formal vs. dinamik ekvivalentlik» nazariyasi. Formal ekvivalentlikda tarjimon asliyatning grammatik tuzilishi, so‘z boyligiga yaqin qoladi. Dinamik ekvivalentlikda esa asliyat o‘quvchisiga ta’sir qanchalik bo‘lsa, maqsad til o‘quvchisiga ham shunday ta’sir ko‘rsatiladi.

Ikkinchisi — Piter Nyumark tomonidan ishlab chiqilgan «kommunikativ tarjima» tushunchasi. Nyumark kommunikativ tarjimada tarjimon maqsad til madaniyati me’yorlariga moslashadi, lekin asliyatning asosiy g‘oyaviy-emotsional ta’sirini saqlab qoladi. Bu yondashuv she’riy tarjimada nihoyatda amaliy va muvozanatli yo‘l sanaladi.

Uchinchisi — Gideon Touri tomonidan ishlab chiqilgan «me’yor nazariyasi» (norm theory). Touri tarjimon bir vaqtning o‘zida ikkita me’yorga bo‘ysunadi, deb hisoblaydi:

asliyat me’yorlari (adequacy) va maqsad til me’yorlari (acceptability). She’riy tarjimada bu ikki me’orning muvozanati — tarjima sifatining asosiy o‘lchovidir.

O‘zbek tarjimashunosligida bu nazariyalar G‘aybulla Salomovning «Tarjima nazariyasiga kirish» (1978) asarida o‘zbek tilshunoslik kontekstida qayta ishlab chiqilgan. Salomov she’riy tarjimada «badiiy ekvivalentlik» tushunchasini alohida kategoriya sifatida ajratib, uni faqat leksik muqobilikdan emas, balki badiiy ta’sir kuchining mos kelishidan iborat deb belgilagan. Shomammedov tarjimasi ana shu me’yorga mos keladi.

3. Ruboiy janrining tarjimashunoslik muammolari

Ruboiy — fors-tojik she’riyatining eng qadimiy va o‘ziga xos janrlaridan biri. «Ruboiyot» so‘zi arabcha «arba’» (to‘rt) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, to‘rt misradan iborat janrni anglatadi. Uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat.

Ruboiyda AABA sxemasi qo‘llaniladi — birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi misralar qofiyadosh, uchinchi misra erkin. Bu tuzilish forscha «hazaj» bahrida yoziladi. O‘zbek tilida bunday tuzilishni saqlab qolish murakkab, chunki o‘zbek morfologiyasi fors morfologiyasidan tubdan farqlanadi. Forsda fe‘llar ko‘pincha qofiyadosh bo‘lsa, o‘zbek tilida otlar, sifatlar, ravishlar ham qofia yasaydi. Ruboiy to‘rt misrada bir butun falsafiy fikrni ifodalashi kerak. Xayyomning ruboiylarida ko‘pincha uchta mavzu — vaqt o‘tkinchiligi, hozirgi lahzani qadrlash va insonning taqdir oldidagi ojizligi — bittadan iborat she’rda uyg‘unlashadi. Bu zichlikni tarjimada saqlash eng muhim vazifa. Xayyom ruboiylarida «may», «soqiy», «xaroba», «kosa», «ko‘za» kabi obrazlar bir mazmuni emas, ko‘p qatlamli ramziy ma‘noni ifodalaydi. 1981-yilgi «Ruboiylar» to‘plamiga yozgan so‘zboshisida Shomammedov o‘zi bu haqida maxsus tushuntirish beradi: «Xayyom ruboiylaridagi may — badiiy obraz bo‘lib, uning tarkibida gohida kishi portretlari chizilsa, gohida falsafiy fikrlar bayon etiladi».

Mana shularning barchasi ruboiy tarjimasini o‘zbek tarjimashunosligidagi eng murakkab vazifalardan biriga aylantiradi va Shomammedovning bu sohadagi ishi alohida ilmiy diqqatga loyiq bo‘ladi.

4. Badiiy ekvivalentlik: kitobdagi ruboiylar tahlili

Quyida «Ruboiylar» (1981) to‘plamidan tanlangan ruboiylar turli ekvivalentlik turlari nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Tahlil uchun maqsadga ko‘ra farqli — falsafiy, axloqiy va tasavvufiy — mavzulardagi ruboiylar tanlandi.

4.1. Formal ekvivalentlik: qofiya va vazn tizimini saqlash

Formal ekvivalentlikdagi eng muhim vazifa — AABA qofiya sxemasini o‘zbek tilida saqlab qolish. Quyidagi ruboiy (to‘plamda 10-raqam) bu muammoni qanday hal etilganini yaqqol ko‘rsatadi:

10-ruboiy (Shomammedov tarjimasidan)

Kechagi kuningni aylamagil yod,

Ertang kelmay turib, etma ko‘p faryod.

O‘tgan, kelmaganga qayg‘urmoqni qo‘y,

Quvnoq bo‘l, umringni qilmagil barbod.

Bu ruboiyda Shomuhammedov AABA sxemasini «yod — faryod — barbod» qofiyadoshligi orqali to‘la saqlab qolgan. E’tibor bering: forscha aslyatda bu uchala so‘z ham forscha so‘zlar bo‘lib, ularning o‘zbek tilidagi muqobillari ham forscha-arabcha o‘zlashmalar ("yod" — esda tutmoq, "faryod" — nola, "barbod" — behuda). Bu — tarjimonning o‘zbek adabiy tilida mustahkam o‘rin egallagan forscha-arabcha lug‘at qatlamidan ongli foydalanishining namunasidir.

Falsafiy mazmun jihatidan ham ekvivalentlik to‘la ta’minlangan: birinchi misrada o‘tmish («kechagi kun»), ikkinchisida kelajak («ertang»), uchinchisida ikkalasi ham rad etiladi, to‘rtinchisida esa hozirgi lahzaga da’vat beriladi. Bu Xayyomning asosiy falsafiy pozitsiyasi — «lahzaviy hayot falsafasi» — to‘rt misrada mukammal ifodalangan.

Shomuhammedov qo‘llagan «quvnoq bo‘l» ibodasi — forscha «بانش شاد» (shod bo‘l)ning muqobili sifatida — kommunikativ ekvivalentlikning yorqin namunasi: o‘zbek o‘quvchisiga tabiiy tuyuladi, shu bilan birga aslyatning emotsional da’vatini to‘la saqlab qoladi.

4.2. Dinamik ekvivalentlik: may ramzining ko‘p qatlamli talqini

Xayyom ruboiylarida eng ko‘p uchraydigan va eng ko‘p qirrali obraz — «may» (sharob). Tarjimon uchun asosiy muammo shuki, «may» faqat ichimlik emas, balki falsafiy erkinlik, ilohiy ishq va hayotning o‘tkinchiligi kabi ma’nolarni o‘z ichiga oladi. Shomuhammedov bu obrazni qanday ko‘chirgan? Quyidagi ikki ruboiy turli ma’noviy qatlamlarda «may» obrazining tarjimasini ko‘rsatadi:

94-ruboiy (Shomuhammedov tarjimasidan)

May ichamem, mastlik qilmayman aslo,

Qadahdan o‘zgaga bo‘lmayman balo.

Boda ichishlikdan mening g‘arazim —

O‘zimga sen kabi qo‘ymaslik bino.

Bu ruboiyda Shomuhammedov «may» obrazini uch qatlamda ifodalagan: birinchi misrada «mastlik qilmayman aslo» deb, mayning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosini inkor etadi; ikkinchi misrada «qadahdan o‘zgaga balo bo‘lmayman» deb, ijtimoiy izolyatsiya g‘oyasini kiritadi; to‘rtinchi misrada esa may ichishning haqiqiy sababi — o‘zgalarning kibr va manmanligiga tushmaslik — falsafiy xulosaga aylanadi.

Tarjimon «g‘araz» (maqsad, niyat) so‘zini tanlab, forscha-arabcha lug‘aviy qatlamdan foydalangan. Bu so‘z o‘zbek o‘quvchisiga tanish, lekin ma’no chuqurligi jihatidan «maqsad» yoki «niyat» so‘zlariga qaraganda ko‘proq falsafiy og‘irlikka ega. Bu — dinamik ekvivalentlikning nozik namunasidir: tarjimon o‘zbek tilining imkoniyatlaridan ijodiy foydalanib, aslyatning ta’sir kuchini oshirgan.

79-ruboiy (Shomammedov tarjimasidan)

*Ichkilik kekkaygan boshni qilur xam,
Maydan echilmagan biror tugun kam.
Bir qultum may ichgan bo ‘lsaydi shayton
Ming sajda qilardi odamga ul ham.*

Bu ruboiy «may» obrazini ijtimoiy-axloqiy kesimda ifodalaydi va kuchli satirik ohangga ega. «Kekkeygan bosh» — kibr timsolidir; «may» esa uni «xam qiluvchi» — ya’ni kibrni sindirib, odamni kamtarlikka undaydigan vosita sifatida taqdim etilgan.

To’rtinchi misra — eng kuchli va paradoksal: «Bir qultum may ichgan bo’lsaydi shayton — Ming sajda qilardi odamga ul ham». Bu misrada «sajda» so’zi ikki ma’noda: diniy ta’zimda ham, ramziy hurmatda ham o’qiladi. Shomammedov «ul ham» oxiridagi ta’kidlovchi yuklamani qo’shib, shaytonning ham, insonga sajda qilishiga bo’lgan kinoyaviy ishorani kuchaytirgan.

Kommunikativ ekvivalentlik jihatidan bu ruboiy o’zbek o’quvchiga to’liq ta’sir qiladi: she’riy forma zamonaviy o’zbek adabiy tiliga mos, ramzlar tanish, falsafiy xulosasi teran va ta’sirchan.

4.3. Falsafiy kolorit: vaqt va o’tkinchilik mavzusi

Xayyomning eng keng tarqalgan mavzusi — hayotning o’tkinchiligi va insonning bu haqiqat oldidagi dargumoni. Quyidagi ruboiylar bu mavzuning turli qirralarini ifodalaydi:

13-ruboiy (Shomammedov tarjimasidan)

*Sen — mendan oldin ham tun-kun bor edi,
Aylangan falak ham butun bor edi.
Tuproqqa avaylab qadamingni qo’y,
Bu tuproq qora ko’z bir nigor edi.*

Bu ruboiy Xayyomning moddiylik falsafasini nihoyatda sodda va ta’sirchan obrazda ifodalaydi: oyoq ostidagi tuproq — bir zamonlar go’zal inson edi. Tarjimonning eng nozik yechimi — uchinchi misrada «avaylab» so’zining tanlanishidir. «Avaylab» — o’zbekcha so’z bo’lib, «ehtiyot bilan, muloyimlik bilan» ma’nosini anglatadi. Forscha asliyatda bu ma’no bor, ammo aynan «avaylab» so’zi o’zbek o’quvchisiga tuproqqa nisbatan mehribonlik va hurmat tuyg’usini yanada aniq va ta’sirchan yetkazadi.

To’rtinchi misra — «Bu tuproq qora ko’z bir nigor edi» — forsha she’riy an’anadagi «qora ko’z» (chashmi siyoh) obrazini o’zbek tasavvurida ham tanish va ta’sirchan bo’lgan timsolga aylantirgan. Bu — kommunikativ ekvivalentlikning muvaffaqiyatli namunasidir.

66-ruboiy (Shomammedov tarjimasidan)

*Keksa, yosh — hayotga har kimki yetar —
Hammasi izma-iz birma-bir o’tar.*

*Bu dunyo hech kimga qolmas abadiy,
Ketdilar, ketamiz, kelishlar, ketar.*

Bu ruboiy Xayyomning vaqt haqidagi falsafasini eng ixcham va ta’sirchan shaklda ifodalagan asarlardan biridir. Shomammedov tarjimasining o‘ziga xos xususiyati — to‘rtinchi misradagi uch fe’lning («ketdilar — ketamiz — kelishlar — ketar») jadal ritmik tuzilishi. Bu tarjimonning ijodiy qo‘shimchasi bo‘lib, o‘tgan (ketdilar), hozirgi (ketamiz) va kelajak (kelishlar, ketar) zamonlarini bir misrada jamlaydi.

Formal ekvivalentlik jihatidan AABA sxemasi «yetar — o‘tar — ketar» qofiyadoshligi orqali saqlanib qolgan. Fe’l-qofiyalarning ketma-ket kelishi forscha she’riy an’anasiga mos, lekin o‘zbek tilida ham tabiiy va ta’sirchan.

4.4. Ijtimoiy-tanqidiy ruboiylar: diniy munofiqlikka qarshi

Xayyom ruboiylarining muhim qismi diniy va ijtimoiy munofiqlikni fosh qilishga bag’ishlangan. Bu ruboiylarni tarjima qilishda tarjimon ikkita xavf oldida turadi: asliyatning o‘tkir kinoyasini yo‘qotish yoki o‘ta keskin talqin qilish. Shomammedov quyidagi ruboiyda muvozanatni mahorat bilan saqlagan:

56-ruboiy (Shomammedov tarjimasidan)

*Bir qo‘lda Qur‘onu bittasida jom,
Ba‘zida halolmiz, ba‘zida harom.
Firuza gumbazli osmon tagida
Na chin musulmonmiz, na kofir tamom.*

Bu ruboiy Shomammedov tarjimasining eng ko‘p iqtibos qilingan va eng mashhurlari qatoriga kiradi. Uning sababi aniq: tarjimon forscha asliyatning asosiy dialektik ziddiyatini — Qur‘on va jom, halol va harom, musulmon va kofir — o‘zbek tilida ham to‘la va ta’sirchan ifodalagan.

Uchinchi misra — «Firuza gumbazli osmon tagida» — tarjimada alohida diqqatga loyiq. «Firuza gumbaz» — bu O‘rta Osiyo va Eron me’morchiligi uchun xos obraz bo‘lib, ko‘k rangdagi gumbazli masjid yoki saroy tuprasini anglatadi. Bu obraz o‘zbek o‘quvchisiga juda tanish: Samarqand, Buxoro, Xiva me’morchiligining asosiy belgisi — aynan mana shu firuza gumbazlar. Tarjimon bu obrazni saqlash orqali she’rning madaniy koloritini to‘la yetkazgan.

Formal ekvivalentlik jihatidan: AABA sxemasi «jom — harom — tamom» qofiyadoshligi orqali saqlanib qolgan. Uchala so‘z ham forscha-arabcha o‘zlashmalar bo‘lib, o‘zbek she’riy tilida qofiya hosil qilish uchun qulay.

4.5. Falsafiy-mavhum ruboiylar: borliq va yo‘qlik mavzusi

Xayyomning eng chuqur falsafiy ruboiylari borliq va yo‘qlik, insonning koinotdagi o‘rni kabi masalalarni ko‘taradi. Bu ruboiylarni tarjima qilishda leksik aniqlik va falsafiy teranlik o‘rtasidagi muvozanat ayniqsa muhim. Quyidagi ruboiylari bu mavzuda Shomammedovning yondashuvini ko‘rsatadi:

1-ruboiy (Shomammedov tarjimasidan)

*Dunyoning tilagi, samari ham biz,
Ahl ko‘zining qorasi — javhari ham biz.
To‘garag jahonni uzuk deb bilsak,
Shaksiz uning ko‘zi — gavhari ham biz.*

To‘plam birinchi ruboiyi sifatida joylashtirilgan bu asar Xayyomning kosmik falsafasini ifodalaydi: koinotning markazi — inson. Tarjimon «javhar» (mohiyat, asl) va «gavhar» (marvarid, qimmatbaho tosh) so‘zlarini tanlab, bitta arabcha ildizdan kelib chiqqan, lekin ma’no jihatidan bir-birini to‘ldiruvchi ikki so‘zdan foydalangan.

«Uzuk va ko‘z» metaforasi fors she’riyatida keng tarqalgan: dunyo uzuk, inson esa uning ko‘zi (markaziy qimmatbaho toshi). Shomammedov bu metaforani to‘g‘ridan-to‘g‘ri saqlagan — bu formal ekvivalentlikning to‘g‘ri yechimi, chunki o‘zbek she’riy an’anasida ham «ko‘zi» va «gavhar» obrazlari tanish va tushunarli.

Tarjimaning ritmik tuzilishi ham e’tiborli: har misra oxirida «ham biz» takrorlash she’rga o‘ziga xos ohang va bir butunlik bag‘ishlaydi. Bu forscha asliyatdagi anafora uslubining o‘zbekcha muqobilidir.

5. XULOSA

Shoislom Shomammedovning Umar Xayyom «Ruboiylar» (1981) to‘plamini o‘zbek tiliga tarjima qilish tajribasi tarjima nazariyasi nuqtai nazaridan ko‘p qirrali va boy hodisadir. Ushbu tahlil quyidagi xulosalarni asoslaydi.

Birinchi, Shomammedov formal va dinamik ekvivalentlik tamoyillarini muvozanatli qo‘llagan. U AABA qofiya sxemasini o‘zbek tilining imkoniyatlari doirasida saqlagan (formal ekvivalentlik), shu bilan birga «may», «kosa», «xaroba» kabi obrazlarning ko‘p qatlamli ma’nosini maqsad til o‘quvchisiga ta’sirchan yetkazgan (dinamik ekvivalentlik).

Ikkinchi, tarjimon o‘zbek va fors adabiy tillarining qo‘shma leksik qatlamidan — ya’ni ikki tilga umumiy bo‘lgan arabcha-forscha o‘zlashmalardan — unumli foydalangan. Bu yondashuv tarjimanig formal jihatini osonlashtirgan va madaniy koloritni saqlashga yordam bergan.

Uchinchi, tarjimon o‘z ijodiy shaxsiyatini olib kirgan joylarda — masalan, «avaylab» kabi so‘z tanlovlarida — dinamik ekvivalentlik orqali she’rning ta’sir kuchini kuchaytirgan. Bu tarjimon-shoir sifatidagi ijodiy erkinlikning maqbul ko‘rinishidir.

Shomammedovning «Ruboiylar» tarjimasini o‘zbek tarjimashunosligida muhim o‘rin egallaydi: u forscha asliyatdan bevosita, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘girish metodining eng yuksak namunalardan biri bo‘lib qoldi.

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-May, 2026-yil

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umar Xayyom. Ruboiylar / tarjimon va so‘zboshi muallifi Sh. Shomammedov. — Toshkent: O'zbekiston KP Markaziy Komiteti nashriyoti, 1981. — 128 b.
2. Nida E. A., Taber C. R. The Theory and Practice of Translation. — Leiden: Brill, 1969. — 220 p.
3. Newmark P. A Textbook of Translation. — New York: Prentice Hall, 1988. — 292 p.
4. Toury G. Descriptive Translation Studies and Beyond. — Amsterdam: John Benjamins, 1995. — 312 p.
5. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. — Toshkent: O‘qituvchi, 1978. — 192 b.
6. G’afurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. — Toshkent: JDPU nashriyoti, 2021. — 184
7. Shomammedov Sh. Sharq adabiyoti sahifalari. — Toshkent: Fan, 1985. — 168 b.
8. Ismoilova M. Umar Xayyom ruboiylari tarjimalarida badiiy tasvir vositalarining qo‘llanilishi. — Zenodo, 2025.
9. Komissarov V. N. Sovremennoe perevodovedenie. — Moskva: ETS, 2004. — 384 s.